

2017-2021 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IJROIYA HOKIMIYATIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Ismatov Shohrubbek Murod o'g'li

*Buxoro davlat Pedagogika instituti "Pedagogika va ijtimoiy fanlar
fakulteti" Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

Bugun O'zbekistonda izchil amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar natijasida mamlakatni jahon tanimoqda va tan olmoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy tashabbusi va hayotbaxsh g'oyalari asosida ishlab chiqilgan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" davlat va jamiyatni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab berganini alohida e'tirof etish lozim. Ta'bir joiz bo'lsa, "Harakatlar strategiyasi" bugungi globallashtirish sharoitida er yuzida tub o'zgarishlar kechayotgan murakkab bir vaziyatda, O'zbekiston uchun siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning eng muhim besh ustuvor yo'nalishini amalga oshirishning yaqin istiqbolga mo'ljallangan muhim milliy strategik hujjatidir.

Davlat boshqaruvi va davlat xizmati fizimini yanada takomillashtirish, uning amaldagi qonunlar doirasida samarali faoliyatini tashkil etish, davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, shuningdek, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligi, boshqaruvchilik salohiyati, rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyati nuqtainazaridan ularga yondoshish, moddiy va ijtimoiy ta'minoti darajasini mustahkamlash ishlarini amalga oshirish masalalariga e'tibor berilishi ko'zda tutilgan. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishda ijro hokimiyati organlarining uyg'un faoliyat olib borishi g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Hukumatning vazifa va tuzilmasini tanqidiy qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish lozim. Bunday o'zgarishlar davlat va xo'jalik ishi sohasida deyarli bir xil vazifalarni bajarayotgan yuzdan ortiq boshqaruv organlari sonini tubdan qisqartirish imkonini beradi.

Bugungi sharoitda aynan ochiqlik va hisob berish mas'uliyati davlat apparatinimsamarali shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Hozirgi zamondagi jahonndavlatchiligiga xos ilg'or tajribalar va milliy davlatchiligimizning bir necha mingnyillik an'analari sintezlashgan zamonaviy sivilizatsiya asosidagi davlat boshqaruvi yutuqlaridan foydalangan holda "Davlat boshqaruvi asoslari to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish nazarda tutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 8 sentyabrda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni davlat boshqaruvining zamonaviy mexanizmini yaratishni taqozo etmoqda¹⁸. Zotan, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko'lamlı islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab qiladi.

FARMONGA KO'RA QUYIDAGILAR BELGILAB BERILDI:

➤ bir qator idoralarning vazifalari deklarativ xususiyatga egaligi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari etarli emasligi, mavjud vaziyatni yuzaki qayd etish va umumiy ma'lumotlarni to'plashdan iborat bo'lib qolgan samarasiz tizimning mavjudligi, joylardagi haqqoniy holatni aniq tahlil qilolmasligi;

➤ hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari, majburiyatlari va rolining pasayishiga olib keluvchi davlat boshqaruvining haddan tashqari markazlashtirilganligi;

➤ ortiqcha rasmiyatchilik, buyruqbozlik, qog'ozbozlik va katta miqdordagi sarfxarajatlarga yo'l qo'yilayotganligi, innovatsion rivojlanishning qoniqarsizligi;

➤ xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan davlatning tartibga solish va xo'jalik funksiyalari qo'shib olib borilishi tufayli sog'lom raqobat muhitining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi imtiyoz va preferensiyalarni tanlab taqdim etish amaliyotining sustligi;

➤ ayrim rahbarlarda lozim darajada mas'uliyat va tashabbuskorlikning mavjud emasligi, rahbarlik salohiyati va bilim darajasini zaifligi hududlar rivojlanishiga mone'lik qilayotgani;

Ushbu kamchiliklar iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining turmush darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan chora-tadbirlarni samarali amalgaoshirishda ijro hokimiyati organlarining uyg'un faoliyat olib borishi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Afsuski, bugungi kunda faoliyat yo'nalishidagi javobgarlik darajasi, vakolat mexanizmlari aniq chegaralab, belgilab qo'yilmagani ishga xalaqit bermoqda.

Shu munosabat bilan davlat boshqaruvida ochiqlikka asoslangan, samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish lozim. Bu borada davlat

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 08.09.2017 yildagi PF-5185-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-3331174>

rahbari tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmon¹⁹ “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ni amalga oshirishda muhim qadam hisoblanadi hamda mohiyatiga ko‘ra O‘zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib berdi. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning oltita asosiy yo‘nalishi belgilab berildi. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchi yo‘nalish ijro hokimiyati organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bag‘ishlangan. Mazkur sohadagi choratadbirlar quyidagilarni nazarda tutadi:

– ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va tugatishning aniq mezonlari hamda huquqiy asoslarini ishlab chiqish va joriy qilish;

– kadrlar va moddiy resurslardan oqilona foydalangan holda ijro hokimiyatining joylardagi organlarini optimallashtirish;

– mahalliy ijro hokimiyati organlarining mustaqilligini ta‘minlash bilan birga ularning Vazirlar Mahkamasi oldida javobgarlik asosidagi o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

– davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini izchil takomillashtirish va “Elektron hukumat” tizimini yanada keng joriy etish;

– ma‘muriy adliyani rivojlantirish va murojaatlarni eshitishning oshkoraligini har tomonlama ta‘minlash²⁰.

Ikkinchi yo‘nalish ijro hokimiyati va uning mahalliy organlarining vazifalarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan quyidagi masalalar bo‘yicha choratadbirlar ko‘riladi:

– rivojlanish dasturlarini shakllantirishda va ularning to‘liq bajarilishini ta‘minlashda hududiy ijro hokimiyati organlarining tashabbuskorligi va rolini oshirish;

– barcha darajadagi ijro hokimiyati organlari va ularning rahbarlari faoliyatini baholashning maqsadli indikatorlarga erishishga asoslangan prinsiplar yangi tizimini joriy qilish;

– ishni tashkil etishning xalqaro amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan, shu jumladan, sifat menejmenti, indikativ rejalashtirish, outsorsing, kraudsorsing kabi zamonaviy uslublaridan foydalanish;

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 08.09.2017 yildagi PF-5185-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-3331174>

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 08.09.2017 yildagi PF-5185-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-3331174>

– rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilishda jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikning zamonaviy shakllarini joriy etish²¹.

Uchinchi yo'nalish iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sirni qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda quyidagilar rejalashtirilmoqda:

– xususiy sektor samarali faoliyat ko'rsatayotgan sohalarda davlat ishtirokidagi tijorat tashkilotlarini tuzishni cheklash va amaldagi davlat korxonalarini qayta ko'rib chiqish;

– iqtisodiy faoliyatda davlat ishtirokining aniq bozor mexanizmlarini ishlab chiqish;

– ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda ijtimoiy hamda davlat-xususiy sheriklikning huquqiy va institutsional bazasini takomillashtirish;

– ayrim davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish.

To'rtinchi yo'nalishda, jumladan, quyidagilar orqali vertikal boshqaruv tizimi va ijro hokimiyati organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish nazarda tutilgan:

– davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich qisqartirish va erkinlashtirish;

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning roli va javobgarligini oshirish;

– hududiy organlarning rahbar kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kuchaytirish.

Beshinchi yo'nalish davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan. Mazkur chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

– davlat xizmatlari ko'rsatish tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni ta'minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish;

– investitsiyalarni innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqishga faol jalb etish;

– zamonaviy ilmiy-tadqiqot va innovatsion yutuqlarni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun zarur bo'lgan rivojlangan infratuzilmani yaratish;

– tabiatni muhofaza qilish, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish.

²¹ Davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yo'nalishi belgilab berildi. // <https://m.kun.uz/uz/news/2017/09/10/davlat-boskaruvi-tizimini-tubdan-islo-kilisning-6-ta-asosij-junalisi-belgilab-berildi>

Oltinchi yo'nalishda professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlarini o'rnatish belgilangan. Ularga erishish uchun quyidagilar rejalashtirilgan:

– davlat xizmatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi mexanizmlarini joriy etish;

– davlat xizmatchilarining mehnatiga haq to'lash va ijtimoiy ta'minotining zamonaviy tizimini joriy etish orqali ularning mehnat unumdorligini oshirish²². Ma'muriy islohotlarning amalga oshirilishi quyidagi natijalarga erishishga qaratilgan:

– ijro hokimiyati organlarining qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibini takomillashtirishni, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini kollegial eshitish mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi ma'muriy adliya tizimini rivojlantirish;

–“Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligini oshirish²³;

–jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, so'zsiz, innovatsion rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va jahon standartlarini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish imkonini beradi. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlarning amalga oshirilishi “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ulug'vor g'oyani hayotga to'liq tatbiq etishga xizmat qiladi.

“Elektron hukumat” tizimining takomillashtirilishi, uning davlat boshqaruvi tizimiga to'laqonli joriy etilishi davlat boshqaruvi ochiqligini ta'minlashning muhim omilidir. Chunonchi, elektron hukumatning joriy etilishi:

➤ hukumatning qaror qabul qilishda ochiq-oydinligini va hisobot berish majburiyatini ta'minlaydi. Oshkoralikning bunday shakli jamiyatda, fuqarolar orasida sog'lom ma'naviy-ruhiy vaziyatni vjudga keltiradi;

➤ davlat organlari va fuqarolar orasida axborot olish erkinligini ta'minlaydi, axborot almashish samaradorligini oshiradi. Odamlarni davlat

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 08.09.2017 yildagi PF-5185-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-3331174>

²³ O'zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to'g'risida”gi 09.12.2015 yildagi O'RQ-395-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-2833860>

boshqaruvi faoliyatining kundalik natijalaridan, ya'ni turli hujjatlar, statistik ma'lumotlar va joriy qarorlardan xabardor bo'ladi;

➤ fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvi organlari bilan hamkorligiga osonlik bilan yo'l ochib beradi. Ularning keng ishtirokini ta'minlash imkoniyatini kengaytiradi. O'zaro axborot almashish jarayonlarini osonlashtiradi;

➤ kichik va o'rta biznesning turli kundalik yumushlarini, muammolarini hal qilishda keng imkoniyat beradi. Tadbirkorlar oddiy bir hujjat yoki muammoni hal qilish uchun vaqt sarflab idorama-idora yurishmaydi. Yo'l bosib qishloq va markaz o'rtasida sarson bo'lishmaydi, vaqtni tejaydi, xarajatlarini kamaytiradi;

➤ fuqarolarning davlat boshqaruvi organlariga murojaatlari va talablari tezkorlik bilan etib boradi. Ushbu murojaatlarning ko'rib chiqilishi va ularning hal etilishini nazorat qilish imkoniyati davlat organlari uchun kengayadi. Natijada fuqarolar tez va osonlik bilan muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Mahalliy hokimiyat organlari ham ortiqcha qog'ozbozlikdan qutulishadi.

➤ fuqarolarning murojaatlari yuzasidan turli sansolorlik, buyruqbozlik, to'rachilik va, hatto, ta'magirlik illatlari yo'qoladi. Fuqaro o'z uyida o'tirib olib muammolarini boshqaruv organlari bilan elektron muloqotda oson hal etadi;

➤ davlat xizmatlaridan foydalanishda ko'p bosqichli, "otangga bor, onangga bor" qabilida ish tutish o'rnida tezkor va samarali muloqotlar mexanizmi vujudga keladi va boshqalar²⁴.

Bir necha ming yillik davlatchilik tajribasiga ega bo'lgan xalqimiz bugungi kunda ulkan tarixiy tajribalarni zamonaviy sivilizatsiya talablari asosida boyitish, rivojlantirish yo'lidan bormoqda. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish, xalq hokimiyatchiligi tamoyilini yanada chuqurlashtirish, uning eng zamonaviy mexanizmlarini yaratish va hayotda joriy etish Harakatlar strategiyasining muhim talabidir. Ana shu talabdan kelib chiqib, Prezident Sh.M.Mirziyoyev "Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo'ydik. Ularning ichiga kirib ochiq va samimiy gaplarini, dardini eshitish bizning faoliyatimizda afsuski oxirgi o'ringa tushib qoldi"²⁵, deb takidlagan edi.

Harakatlar strategiyasining keng muhokamaga qo'yilishi davlat hokimiyatining demokratik asoslarini yanada mustahkamlashga, xalqimizning eng muhim qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini ta'minlashga xizmat qildi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

²⁴ O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi 09.12.2015 yildagi O'RQ-395-sonli Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-2833860>

²⁵ 2017-yil mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili" deb e'lon qilindi. // <https://president.uz/oz/lists/view/107>

yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiyasi, shuningdek, Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha komissiyalar tuzilib, Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha komissiyalar zimmasiga Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish, shuningdek Harakatlar strategiyasini 2018 - 2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihalarini tayyorlash vazifasi yuklatildi. Amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash va ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilgan holda tayyorlangan Harakatlar strategiyasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha beshta ustuvor yo'nalish belgilangan. Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalari bilan samarali o'zaro hamkorlik qilinishi, tadbirkorlar hamda chet ellik investorlarni tasdiqlangan jadval bo'yicha har kuni qabul qilish, tadbirkorlar muammolarining xolisona va adolatli hal etilishi, murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida tegishli Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi tashkil qilindi.

Xulosa qilib aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarini bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosabat shart-sharoit yaratib berish, og'irini yengil qilish uchun raxbar etib tayinlanadi. Barcha bo'g'indagi raxbarlar – vazir yoki hokim bo'ladimi, idora yoki tashkilot boshlig'i bo'ladimi, o'zini odob-ahloqi va madaniyati bilan hammaga o'rnak va namuna bo'lishi zarur" degan so'zlari amalga ohsa davlat boshqaruvi yanada mukammal bo'ladi, unga xalq ishonadi va har doim qo'llab quvvatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 10 dekabr 2019 yildagi O'RQ-591-sonli Qonuni.
2. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 10 dekabr 2019 yildagi O'RQ-591-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 07.02.2017 yildagi PF-4947-sonli Farmoni. –T.: "Adolat", 2018. –111 b.



4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 08.09.2017 yildagi PF-5185-sonli Farmoni.

5.O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi 09.12.2015 yildagi O'RQ-395-sonli Qonuni.

6.Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –Toshkent: Tasvir, 2020. – B. 12-1.

7.Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. //“Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 1 sentyabr, № 186.

8.Azizxo'jayev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. – T.: "Sharq",1997. 93 b.

9.Azizxo'jayev A.A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: "O'zbekiston", 2008. 495 b. Bekmurodov M., Xusanov O., Raximova D. va b. Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash. –T., 2021. 105 b.